

KASB-HUNAR TA'LIMI

Профессиональное образование
Professional education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal
2025-yil, 2-son

Muassislar:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
Pedagogik innovatsiyalar, professional
ta'lim boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta
tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

Bosh muharrir: Z.Y.XUDAYBERDIYEV

Ijrochi direktor: H.SIROJIDDINOV

Tahrir hay'ati:

M.XOLMUXAMEDOV, R.X.JO'RAYEV,
A.Q.JALALOV, A.R.XODJABAYEV,
J.SH.SHOSALIMOV, A.NABIYEV,
A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV,
K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan.
O'zbekiston matbuot va axborot agentligida
2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro'yxatga olinib,
0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi
tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori
bilan Pedagogika fanlari bo'yicha dissertatsiyalar
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Manzil: 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani
Universitet ko'chasi, 2-uy
Tel.: 90-979-75-89; 94-677-90-32;

E-mail: kasbhunartalimi@mail.ru,
ksbjurnal@inbox.uz.

Nashr uchun mas'ul
H.Sirojiddinov

Sahifalovchi:
I.Sirojiddinov

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazariga to'g'ri
kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi
va egasiga qaytarilmaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Kasb-hunar ta'limi"
jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 16.03.2025-yil.
Bichimi 60x84 1/8

Bosma tabog'i 10. Adadi 60 nusxa.
Buyurtma "PROFIEDUPRESS" MChJ
bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Sirg'ali tumani,
Yangi Sirg'ali ko'chasi, 18-uy

МУНДАРИЖА

Zokirova S.M., Fayzullayeva N.U. TRIZning asosiy tamoyillari va texnikalari: ijodiy muammolarni hal qilishda qo'llaniladigan usullar	3
Sharipova D.R. Sinergetik yondashuv asosida biologiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishdagi innovatsiyalar	10
Aripova Sh.A. Individual yondashuv asosida talabalarda boshqaruvga oid kompetensiyalarni rivojlantirish	14
Xoldarova I.V. O'quvchilarning ta'limiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi	19
Ibragimova C.B. Преимущества киберспорта в жизни молодежи	23
Kodirov M. Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini sahnalashtirilgan o'yinlar orqali rivojlantirishning samarasi	27
Mahmudova Z.H. Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish usullari va boshqaruvchining ilmiy salohiyati	32
Ne'matova M.M. Boshlang'ich sinflarda harakat semali leksemlarning o'rganilish tarixi	36
Mamadaliyeva A.M., Teshaboyev D.R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari gigiyenik tarbiyasini shakllantirish o'zbek xalq maqollari misolida	41
Kamolova G. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida til o'qitishning integrativ yondashuv xususiyatlari	45
Ismatillayeva L.A. Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalarning muloqot kompetensiyasidagi muammolar va ularni bartaraf etishning innovatsion va interfaol usullari	50
Murodov F.M. O'rta osiyolik qomusiy olimlarning ilmiy merosidan oliy pedagogik ta'lim jarayonida foydalanish shakllari, usullari, vositalari ...	54
Bekchonova Sh.B. Raqamli ta'lim muhitida talabalarning kiberpedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishda adaptiv va individuallashtirilgan o'qitish tizimlari	61
Djavlanova N.X. Talabalarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda integrativ yondashuvning roli	67
Axmedova G.F. Talaba-yoshlarda badiiy-kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy – metodologik jihatlarini	73
Umarov N.N. Kognitiv ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari va ularning qo'llanilishi bo'yicha dunyo tajribasi	80
Mamanov S.K. Bo'lajak muhandislarning fazoviy tafakkurini rivojlantirishda 3d modellash dasturlarining imkoniyatlari	85
Rabbonova D.T. O'quvchilarning pirlar tadqiqotlariga tayyorlash yuzasidan o'qituvchilarga tavsiyalar	91
Maxkamov Z.N. Animatsiyalangan kontent orqali ingliz tilini o'rganuvchilarda lug'at ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	96
Eskarpaeva G.B. Чтение русских народных сказок на занятиях по РКИ в свете формирования лингвокультурологической компетенции ...	100
Sabitova T. Xalq ertaklari va bolalar folklorini janriy xususiyatlar asosida o'qitish	105
Jabborova M.Sh. Tilni o'rganishda miyaning yoshga qarab farqlanishi	111
Axmadjanov D.B. Bo'lajak o'qituvchilarning tayyorlashda sharq mutafakkirlari axloqiy-pedagogik qarashlarining ahamiyati	116
Begjonov M.Sh. Xorijiy olimlarning talabalarning loyihalash faoliyatiga tayyorlashni tadqiq qilishning nazariy jihatlarini	122
Nurmanova D.J. O'qituvchilarga qo'yiladigan didaktik-kompetentsiyaviy talablar (bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun)	127
Mirgazyeva Z.T. O'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	131
Achilova Yu.A., Achilova F.A. Применение искусственного интеллекта в системе образования: возможности и риски	135
Suleymanova N.K. Oliyoghlarda ingliz tilini o'qitishda multimedia-videokontentlardan foydalanishning didaktik jihatlarini	140
Teshaboyev D.R., Madazimova M.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutq rivojlanishida innovatsion yondashuvlar va kognitiv metodlar	144
Oripova Z. Alaliya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini o'stirish bo'yicha korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlari	148

Gulamov J.B. Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mas'uliyat ko'nikmalarini takomillashtirish imkoniyatlari	152
Kurbanov A.T. Ishlab chiqarish va oliy ta'limda klasterni tashkil etish mexanizmlari	158
Turakulova L.X. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida grammatik kompetentligining o'ziga xos xususiyatlari	162
Ахметова К.И. Разработка и реализация мониторинга повышения квалификации педагогических кадров системы профессионального образования	169
Ruziyev K.A. Umumta'lim maktab fizika ta'limida eksperimental masalalarni yechish	174
O'rinova Sh.B. Pedagogika tarixini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari	181
Butayev T. Texnika oliygohlarida talabalarni tadbirkorlikka tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirish	185
Umarov E.D. Mustaqil ta'limni raqamlashtirish orqali talabalarni inklyuziv ta'limga tayyorlash va bilimni baholash	190
Babaxo'jaev U.S., Ismanova O.T., Shamsiddinova S.M. Fizik bakalavrlar tayyorlashda individual tabaqalashtirilgan ta'limiy yondashuvda kompyuter modellashirishning ahamiyati	194
Yakubova M.F. Kimyoni o'qitishda fanlar integratsiyasidan foydalanishning ahamiyati	202
Komilova U.T. Nutqi rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy muloqot vositalarini shakllantirishda ertak terapiyasi	208
Sodiqova U.B. Kimyo fanidan o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini 5E moduliga uyg'unlashgan holda shakllantirish	212
Mamatqulov M.X. Maktablarda milliy tarbiyaga asoslangan jismoniy tarbiyani joriy etishdagi muammo va imkoniyatlar	217
Gulomova N.X. AutoCad grafik dasturida bino tomini uch o'lchamda yopishning ba'zi usuli	220
Jo'rayev F.A. Pedagogika talabalarida mantiqiy fikrlashni baholashning diagnostik metodlari	226
Turg'unov N.S. Rivojlangan davlatlar tajribasida maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni boshqarish amaliyoti va texnologiyalari	230
Алиев И. Определение факторная структура физической подготовки борцов	236
Obidov J.G'. Texnika oliy o'quv yurtlari mustaqil ta'lim jarayonida talabalarga o'quv materiallarini imitatsion-variantivlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalarini rivojlantirish tizimi	240
Тригулова А.Х. Использование модульной технологии в преподавании учебного предмета «История музыки» для студентов направления «Музыкальное образование» в педагогических вузах	247
Rahimov A.Y. Kulolchilik mashg'ulotlarida talabalarda badiiy ijodkorlikni rivojlantirish muammosining ilmiy tahlili	252

XORIJIY OLIMLARNING TALABALARNING LOYIHALASH FAOLIYATIGA TAYYORLASHNI TADQIQ QILISHNING NAZARIY JIHATLARI

BEGIJONOV MAHMUDBEK SHARIBBEK O'G'LI

**Andijon mashinasozlik instituti "Mashinasozlik ishlab chiqarishni
avtomatlashtirish" kafedrası katta o'qituvchisi**

Annotatsiya. Talabalarni loyihalash faoliyatiga tayyorlash zamonaviy ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu masala nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb bo'lib, xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq qilinmoqda. Loyihalash faoliyatiga tayyorlash o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, muammolarni hal etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va jamoaviy ish ko'nikmalarini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar. OTM, kompetentlik, loyiha, loyihaviy-texnologik, muhandis, sintez, talabalar, faoliyat.

Kirish. Bugungi kunda butun jahon hamjamiyatining axborot asriga o'tishi, axborotlashishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimi oldiga bo'lajak mutaxassislarining axborot-kommunikatsion tayyorgarligi va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirish zamon talablari darajasida takomillashtirishni talab etmoqda. Jamiyatning informatika vositalari va metodlari arsenalini puxta egallagan mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoji ta'lim siyosatining yetakchi omiliga aylanmoqda.

Zamonaviy bo'lajak muhandislarning loyihaviy-texnologik kompetentligi uchta to'plamdagi kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyatini nazarda tutadi:

- OTM axborot makonidagi loyihaviy-texnologik faoliyat bilan belgilanadigan pedagogik boshqaruv sohasidagi kasbiy vazifalar (tashkiliy, boshqaruv, aloqa, gnostik xarakterdagi vazifalar);

- kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda bo'lajak muhandislarning ta'limini tashkil etish bilan bog'liq axborot texnologiyalari faoliyati bilan belgilanadigan kasbiy asosiy pedagogik vazifalar;

- bo'lajak muhandislarga axborot texnologiyalari, informatika, muhandislik

va kompyuter grafikasi fanlarini o'qitish, shuningdek, bo'lajak muhandislarning axborot texnologiyalari faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq kasbiy vazifalar yangi davlat ta'lim standartlari bilan belgilanadi.

Shunga ko'ra bo'lajak muhandislarning ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, yangicha o'qitish texnologiyalarini ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish hamda ilmfandagi metodlarni innovatsion va axborot-kommunikatsion vositalar bilan birlashtirilgan didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Buning uchun bo'lajak muhandislardan loyihaviy-texnologik kompetentlikning yuqori darajada bo'lishi talab qilinadi.

Bo'lajak muhandislarning loyihaviy-texnologik kompetentligini muhandislik va kompyuter grafikasi vositalari asosida rivojlantirish muammosining yetarli darajada o'rganilmaganligi va bu borada ilmiy tadqiqot ishlari izchil va muntazam ravishda olib borilmaganligi bo'lajak muhandislarni loyihaviy-texnologik kompetentligini muhandislik va kompyuter grafikasi vositalari asosida rivojlantirishning ilmiy-

metodik asoslarini tadqiq etish zaruratini belgilab beradi. Shuning uchun tadqiqot ishining ushbu paragrafida yuqoridagi muammoning holati va uni hal etishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati haqida soʻz yuritiladi.

Ushbu tushunchalar ilmiy adabiyotlarda turlicha taʼriflanishidan kelib chiqib taʼkidlash mumkinki, hozirgi kunda ilmiy-pedagogik hamjamiyatda kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining mazmuni haqida yagona va aniq toʻxtamga kelingan emas.

Bizning tadqiqot obyekti boʻljak muhandisni shakllantirishning oʻquv jarayonidir, shuning uchun ham “muhandis” tushunchasi nimani anglatishini aniqlaymiz. “Muhandis” atamasi (fr. “Ingenieur” lotincha “Ingenieum” — aql, ixtirochilik, tugʻma

qobiliyat).

Umumiy maʼnoda “muhandis” taʼrifi oliy texnik maʼlumotga ega boʻlgan, diplomda nima koʻrsatilganidan qatʼi nazar, moddiy obyektlarni loyihalash va qurish orqali amalga oshiradigan shaxs sifatida talqin etiladi: “bakalavr”, “magistr”, “mutaxassis”, “muhandis”, “muhandislik faoliyati” tushunchalari mazmun va mohiyati esa I.I.Galimzyanova, A.L.Galinovskiy, V.D.Golikova, N.I.Dyatchina, A.I.Rakitova, G.V.Sudoxolskiy, E.Sh.Tashlinskaya, A.A.Tolsteneva, R.I.Sharafutdinova va boshqalarning tadqiqot ishlarida qaralgan.

“Muhandis” taʼrifini tushunish kontekstida biz 1.1-jadvalda keltirilgan “muhandislik faoliyati” taʼrifining kontent tahlilini amalga oshiramiz.

1.1-jadval .

“Muhandislik faoliyati” taʼrifini kontent tahlili

Muallif	“Muhandislik faoliyati” tushunchasining mazmuni
A.Yu.Rojik	Muhandislik faoliyati bilan muhandislik tafakkurining, kasbiy faoliyatga va innovatsiyalarga tayyorlikning majburiy mavjudligini bogʻlaydi.
A.A.Tolsteneva	Bu muhandislik va innovatsion faoliyat oʻrtasidagi qonuniy bogʻliqlikni ochib beradi.
A.I.Rakitov	Konstruktsiyalash va loyihalashni tahlil, texnologiya va boshqaruv bilan bogʻlaydi.
G.V.Suxodolskiy	Muhandislik faoliyatida asosiy rol ni loyihalashga yuklaydi.
V.P.Alekseyev	Muhandislik faoliyatini ijodkorlik deb ataladigan alohida fikrlash turi bilan bogʻliqligini koʻrsatadi.
V.D.Golikov	Muhandislik faoliyati, texnik fikrlashdan tashqari, ijodiy komponent bilan toʻldiriladi.
A.L.Galinovskiy	Muhandislik faoliyati -deganda barcha sifat koʻrsatkichlari talablarini va olingan natijalarni obʼyektiv baholashni hisobga olgan holda obʼyektlarni loyihalash va konstruktsiyalash tushuniladi.
N.I.Dyatchin	U ilmiy bilim, koʻnikma va muhandislik qobiliyatlariga asoslangan muhandislik faoliyatining izchilligini ochib beradi.
I.I.Galimzyanova, R.I.Sharafutdinova	Muhandislik faoliyatining tizimli xususiyatini aniqlaganlar. Ular muhandislik faoliyatining predmetli-amaliy xususiyatlarini ajratib koʻrsatadilar.
Ye.Sh.Tashlinskaya	Loyihalarni, modellarni yaratishga qaratilgan muhandislik faoliyatining ilmiy bilimlar bilan aloqasini koʻrsatadi.
I.M.Vorobyeva	Muhandislik faoliyati individual loyihalash bosqichidan jamoaviy ishlashga oʻtadi va muhandislik faoliyatining natijasi jamiyatning ijtimoiy jihatlariga taʼsir qilishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pchilik olimlar ishlab chiqarishni rivojlantirish jarayonida muhandislik faoliyatini tashkil etish uni aqliy mehnatning boshqa turlaridan ajratib qo'yishga olib keldi deb hisoblaydilar. Muhandislik faoliyatining o'zi ilmiy bilim va amaliy tajribaga asoslangan texnik obyektlar, muhit va texnologiyalarni yaratishdan iborat bo'lib, dinamik, innovatsion va ijodiy, ijtimoiy xususiyatlarga ega. Olimlar muhandislik faoliyati jarayonida asosiy faoliyat turlarini rejalashtirish, loyihalash, konstruksiyalash, loyiha hujjatlarini tayyorlash, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, amalga oshirish va boshqalarni ajratib ko'rsatishadi.

Shunday qilib, eng umumiy shaklda universal kompetensiyalar ma'lum bir kasb yoki soha uchun o'ziga xos bo'lmagan, ammo kasbiy faoliyat va shaxsiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan deb ta'riflanishi mumkin.

Davlat ta'lim standartida nazarda tutilgan umumiy kompetensiyalarini mazmuni va ta'limning asosiy maqsadlari, ijtimoiy va shaxsiy tajriba haqidagi taxminlar, talabalar faoliyatining asosiy turlari asosida aniqlanadi. U yerda umumiy kompetensiyalarning quyidagi toifalari ajratish mumkin:

1. loyihalarni yaratish va amalga oshirish;
2. mustaqil tahlil qila olish
3. mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish;
4. tizimli va tanqidiy fikrlash;
5. madaniyatlararo o'zaro ta'sir;
6. o'z-o'zini tashkil etish va o'zini rivojlantirish.

Tadqiqotda kompetentlik ma'lum bir sohada (shu jumladan professional) muvaffaqiyatli faoliyatga tayyorligini aks ettiruvchi insonning integral dinamik xarakteristikasi sifatida tushunilganligi sababli, loyihalaviy kompetentlikining ahamiyati ortadi, chunki u universal kompetensiyalarga taalluqlidir, ya'ni kasbiy

faoliyat va shaxsiy rivojlanishdir.

“Loyihaviy kompetentlik” konsepsiyasini sintez qilish bo'yicha tadqiqotlarning mantig'iga muvofiq biz “Loyiha” tushunchasini va tez-tez ishlatiladigan turkumlarni ko'rib chiqamiz: “Loyiha faoliyati”, “Loyiha”, “Loyiha usuli”.

Tarixiy jihatdan, loyiha konsepsiyasi anchadan beri qo'llanila boshlangan, bu uning yordamida texnik sohalardagi hujjatlar to'plamini anglatadi. Biroq, jahon pedagogikasida loyiha faoliyati o'tgan asrning boshlarida pedagogik texnologiya sifatida o'z shaklini oldi va Jon Devi va uning izdoshi Uilyam Xird Kilpatrik g'oyalari bilan bog'liq. “Loyiha” tushunchasi ma'nosining tarixiy xronologiyasi quyida 1.2-jadvalda keltirilgan.

John Dewey-dan beri loyiha usuli rivojlanib, uning imkoniyatlari kengayib, ulardan foydalanish va qo'llanilishi sezilarli darajada oshdi. Loyiha pedagogik metod sifatida ma'lum bir muammoga e'tiborni jalb qiladi va uni keyinchalik hal qiladi, shuningdek, faoliyatga yo'naltirilgan xususiyatni ta'kidlaydigan to'plangan bilimlarni amalda qo'llashni nazarda tutadi.

Olimlar loyiha asosida o'qitishning turli jihatlariga alohida e'tibor berishlari ajablanarli emas. L.P. Buschik, Z.I. Vasiliyeva, R.B. Vendrovskaya, A.N. Djurinskiy, M. Knol, T.D. Korneichuk qiyosiy va retrospektiv tahlil bilan shug'ullangan; I.A. Zimniya, T.M. Kauda, A.G. Kulikov loyiha madaniyatini shakllantirish masalasini ko'rib chiqdi; N.V. Matyash, V.A. Molyako, N.N. Nechaev, V.V. Rubtsov loyiha faoliyati psixologiyasini o'rgangan; V.G. Veselova, I.E. Devyatova, N.Yu. Paxomova, E.A. Penkovskik o'quv jarayonida loyiha faoliyatini amalga oshirish va ulardan samarali foydalanish bilan shug'ullanadi; A.L. Bloxin, V.V. Guzeev, E.S. Polat, I. D. Chechel - loyihalashtirish tirilgan

1.2-jadval

“Loyiha” tushunchasi ma’nosining tarixiy xronologiyasi

Davr	Xorijiy pedagogika	Mahalliy pedagogika
1896-1904 yil	Jon Dewey Loyihalashtirish asoslari boshlang'ich maktab uchun asosiy mavqega aylandi. Treningning dastlabki kunlaridan boshlab bola o'yinlarga, improvizatsiyaga, ekskursiyalarda va havaskorlik tadbirlarida ishtirok etdi. Bu talaba tayyor materialni o'zlashtirish bilan chegaralanmagan tizim bo'lib, u o'qituvchi tomonidan belgilangan vazifani mustaqil ravishda hal qiladi. Bunday faoliyat jarayoni belgilangan sxemaga muvofiq amalga oshirildi: qiyinchiliklar paydo bo'lishi, kuzatish, axborotni qidirish va to'plash, potentsial oqibatlarni aniqlash, muammoni shakllantirish, harakat rejasini belgilash, to'g'ridan-to'g'ri rejalashtirilgan rejaga nisbatan harakatlar amalga oshirilgan [208].	P.V. Blonskiy, K.N. Wentzel, V.N. Soroka-Rosinskiy AQShdan kelgan hamkasblari bilan bir vaqtda ular pedagogik usul sifatida loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish bilan shug'ullanishdi. Asosiy g'oyalar bepul maktab modellari, chet el o'qitish va tarbiyalash texnologiyalarini joriy etish, o'zimizning Dalton rejasini, brigada-laboratoriya usulini ishlab chiqish edi [43, 44, 62, 229]. S.T. Shatskiy Asosiy g'oya bolalarda qiziqish uyg'otish, darslar uchun materialni mustaqil tanlash edi, bolaning javob izlashda tayanishi mumkin bo'lgan tajribasi borligi inkor etilmadi. O'qituvchining asosiy vazifasi mustaqillikka o'rgatish edi. Asosiy g'oya shundan iborat ediki, talaba bo'sh kelmaydi, balki o'z hayoti davomida shakllangan ma'lum bilimga ega bo'ladi va maktabning vazifasi bu tajribani qayta ishlash va yangisini olishdir. Biroq, loyiha usuli o'zining muhim kamchiligi ega edi, xususan: shaxsiyatni shakllantirishning bir tomonlamaligi [255].
1918-1925 yil.	Uilyam Xerd Kilpatrik Loyiha mavzularini izlash va shakllantirish atrof-muhit va talabaning bevosita haqiqati orqali amalga oshirildi, bu esa vazifalarni shakllantirish va oqibatlarini aniqlashda biroz mustaqillik berdi. Asosiy talablar: loyiha amalga oshirilishi mumkin va real bo'lishi kerak, ish jarayoni yangi vazifalarning paydo bo'lishini o'z ichiga olishi kerak edi va bolalarning o'z qiziqishi muhim omil edi.	
1911 yil	"Loyiha" atamasi AQSh Ta'lim Byurosida hujjatlashtirilgan.	

ta'lim texnologiyalarini ishlab chiquvchilar.

“Loyihaviy kompetentlik” ta’rifining mazmunidan kelib chiqib, “loyiha” tushunchasini aniqlik kiritamiz:

1. Vebsterning izohli lug’ati: loyiha (inglizcha - loyiha) - rejalashtirilgan korxona: aniq ishlab chiqilgan o’rganish, yoki topshiriq odatda auditoriya o’quvchilari tomonidan bir guruh talabalar tomonidan bajariladi.

2. Pedagogik atamalar lug’ati: “loyiha - bu ma’lum bir vaqt ichida, belgilangan byudjet bilan, natijalar sifatiga aniq talablarga va aniq tashkilotga yo’naltirilgan holda, pedagogik tizimni maqsadli ravishda o’zgartirish bo’yicha o’zaro bog’liq chora-tadbirlar majmuasi”.

3. Loyiha menejmenti mutaxassislarining kompetensiyasiga qo’yiladigan milliy talablar: “loyiha bu noyob mahsulot yoki xizmatni yaratish uchun mo’ljallangan vaqtinchalik faoliyatdir”.

4. Loyiha - bu muayyan talablarga javob beradigan maqsadga erishish uchun o’z zimmasiga olingan va boshlanish va tugash sanalari bilan kelishilgan va boshqariladigan tadbirlar majmuidan iborat noyob jarayon, vaqt, xarajat va resurs cheklovlarini o’z ichiga oladi.

5. Britaniyaning BS 6079-2: 2000 standartida: “loyiha - bu muayyan maqsadlarga erishish uchun belgilangan muddatlar, xarajatlar va amalga oshirish parametrlari bilan biron bir shaxs yoki tashkilot tomonidan olib boriladigan boshlang’ich va yakuniy nuqtalarga ega bo’lgan noyob muvofiqlashtirilgan harakatlar to’plami”.

6. AQSh, Loyiha menejmenti instituti (PMI): “loyiha - bu noyob mahsulotlar va xizmatlarni olishga yo’naltirilgan vaqtinchalik korxona”.

7. Germaniya, DIN 69901 davlat standarti: loyiha bu asosan ularning

umumiyligi sharoitlarining o'ziga xosligi bilan tavsiflanadigan korxona (niyat).


8. Avstraliya Loyiha Boshqaruvi Instituti (AIPM): "Loyiha - bu umumiy maqsadga muvaffaqiyatli erishish uchun mo'ljallangan boshlanish va tugash sanalari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan noyob faoliyat to'plamidir."

9. Boshqariladigan muhitdagi loyihalar (PRINCE2): "Loyiha - bu bir yoki bir nechta biznesni olish maqsadida yaratilgan vaqtinchalik tashkilot".

10. "Enterprise Innovation uchun loyiha va

dasturlarni boshqarish bo'yicha qo'llanma" (P2M): "loyiha - bu cheklangan sharoitda kelishilgan muddat ichida bajarilishi kerak bo'lgan ma'lum bir missiyani amalga oshirishga qaratilgan qiymat yaratuvchi korxona, shu jumladan resurslar va tashqi sharoitlar".

Yuqoridagi loyihaviy-texnologik kompetentlikka berilgan ta'riflardan kelib chiqib biz talabalarni loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan



1.1-rasm. Loyihaviy-texnologik kompetentlikning ishchi ta'rif.

Xulosa. Xorijiy olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, talabalarni loyihalash faoliyatiga tayyorlash ularning shaxsiy va professional rivojlanishiga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida innovatsion usullarni joriy etish orqali talabalarni mustaqil, ijodiy va

mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirish mumkin. Ushbu nazariy yondashuvlarni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish talaba va pedagoglarning salohiyatini yanada oshirishga imkon beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals.
2. Papert, S. (1980). Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.
4. Dewey, J. (1916). Democracy and Education.
5. Kulmuradov D.I. Kelajakda muhandislik yo'nalishlari bakalavrlarining loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarni nazariy asoslash. "Fan va ta'lim" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. 2022-yil, 10-fevral.
6. Kulmuradov D.I. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarini loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi. Kasb-hunar ta'limi Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal 2021-yil, 4-son.